

**PEDAGOGIK AMALIYOTDA 4K KOMPETENSIYALARINING
MUVAFFAQIYATLI QO'LLANILISHI VA TA'LIM SIFATIGA TA'SIRI**

*Babayarova Ra'no Xamidovna,
Samarqand shahar 13-maktab direktori
boboyarova1235@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta'lif tizimida 4K kompetensiyalari – kritik fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya va hamkorlikni pedagogik amaliyotga integratsiya qilish muhimligi tahlil etiladi. Shuningdek, bu kompetensiyalarning o'quvchilarning shaxsiy rivoji va ta'lif sifati ko'rsatkichlariga ko'rsatadigan ijobiy ta'siri ilmiy-nazariy asosda ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar. 4K kompetensiyalari, kritik fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya, hamkorlik, ta'lif sifati, pedagogik amaliyot.

**УСПЕШНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ 4К-КОМПЕТЕНЦИЙ В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ
ПРАКТИКЕ И ВЛИЯНИЕ НА КАЧЕСТВО ОБРАЗОВАНИЯ**

*Бабаярова Рано Хамидовна,
Директор 13-й школы города Самарканда*

Аннотация. В статье анализируется важность интеграции компетенций 4К – критического мышления, креативности, коммуникации и сотрудничества – в педагогическую практику современной системы образования. В нем также на научной и теоретической основе рассматривается положительное влияние этих компетенций на личностное развитие учеников и показатели качества образования.

Ключевые слова. Компетенции 4К, критическое мышление, креативность, коммуникация, сотрудничество, качество образования, педагогическая практика.

**PEDAGOJİK UYGULAMALARDA 4K YETERLİLİKLERİNİN
BAŞARILI KULLANIMI VE EĞİTİM KALİTESİNE ETKİSİ**

*Babayarova Rano Hamidovna,
Semerkand şehrindeki 13. okulun müdürü*

Özet. Bu makale, 4K yeterliliklerini (eleştirel düşünme, yaratıcılık, iletişim ve işbirliği) modern eğitim sistemindeki pedagojik uygulamaya entegre etmenin önemini analiz ediyor. Ayrıca bu yeterliliklerin öğrencilerin kişisel gelişimine ve eğitim kalitesi göstergelerine olumlu etkisi bilimsel ve teorik olarak ele alınmaktadır.

Anahtar kelimeler. 4K yeterlilikleri, eleştirel düşünme, yaratıcılık, iletişim, işbirliği, eğitim kalitesi, pedagojik uygulama.

**SUCCESSFUL USE OF 4K COMPETENCES IN PEDAGOGICAL
PRACTICE AND IMPACT ON THE QUALITY OF EDUCATION**

*Babayarova Rano Khamidovna,
Director of the 13th school in Samarkand city*

Abstract. This article analyzes the importance of integrating the 4K competencies - critical thinking, creativity, communication and collaboration - into pedagogical practice in the modern education system. It also examines the positive impact of these competencies on students' personal development and educational quality indicators on a scientific and theoretical basis.

Keywords. 4K competencies, critical thinking, creativity, communication, collaboration, educational quality, pedagogical practice.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, globalashuv va mehnat bozoridagi o'zgarishlar ta'limga tizimidan mutlaqo yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Ta'limga asosiy maqsadi faqat bilim berish emas, balki o'quvchilarni tanqidiy fikrlovchi, ijodkor, muloqotga kirishuvchi va jamoada ishlay oladigan shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan bo'lishi zarur [4]. Shu nuqtai nazardan qaralganda, 4K kompetensiyalari XXI asrda eng dolzarb pedagogik konsept sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni imzolandi. Bu farmonni ijrosini ta'minlash uchun 1-ilovasining 41-maqсадида nazarda tutilgan – Maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta'limi tizimida qo'shimcha 1,2 million o'quvchi o'rni yaratish. Yangi maktablar qurish, xususiy maktablarni ko'paytirish, ta'limga sifatini oshirishni nazarda tutuvchi milliy dasturni ishlab chiqish va amalga oshirish. O'quv o'rnlari sonini 2026-yil yakuniga qadar 6,4 milliongacha etkazish. Nodavlat ta'limga xizmatlari ko'rsatuvchi tashkilotlarga sharoit va imkoniyatlarni kengaytirish orqali ularning ulushini 2026-yilda 8 foizga, shu jumladan 2022-yilda 3 foizga oshirish. 2022 - 2026-yillarda 217 ta – Barkamol avlodl bolalar maktabini rivojlantirish bo'yicha dasturni amalga oshirish" nazarda tutilgan [1].

4K kompetensiyalarining mazmuni

1. Kritik fikrlash (Critical Thinking) – axborotni tahlil qilish, asosli xulosa chiqarish va samarali qaror qabul qilish qobiliyatি

2. Kreativlik (Creativity) – innovatsion g'oyalarni ilgari surish, yangi va original yondashuvlarni ishlab chiqish.

3. Kommunikatsiya (Communication) – fikrni aniq, lo'nda va tushunarli tarzda ifoda etish, turli auditoriyalar bilan samarali muloqot qilish.

4. Hamkorlik (Collaboration) – jamoaviy faoliyatda ishtirok etish, mas'uliyatni bo'lishish va birlashtirishda muammoni hal etish. Ushbu kompetensiyalar OECD (2020) tomonidan ham zamonaviy ta'limga ustuvor yo'naliishlari sifatida e'tirof etilgan [5].

Yuqorida ko'nikmalarning barchasi dunyo miqyosida tan olingan ta'limga tizimining aosiy bir bo'g'inidir. 4K kompetensiyasini ta'limga integratsiya qilish orqali o'quvchilarda kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga yordam beradi. "4K" kompetensiyasini ta'limga integratsiya qilish zamonaviy, ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarur. Chunki, innovatsion texnologiyalar orqali o'quvchilarda 4 ta kompetensiyani qamrab olgan holda o'rgatish mumkin. Zamonaviy ta'limga oluvchi o'quvchilar nafaqat bu ko'nikmalar balki internet tarmoqlari bilan ishlay olishni, ya'ni bunda, zararli va zararsiz ma'lumotlarni ajrata olishni o'rganmog'i lozim. Bundan tashqari boshlang'ich sinf o'quvchilarning bilimini xalqaro baholash dasturiga tayyorlash "4K" kompetensiyasi orqali erishish mumkin. Xalqaro baholash dasturlariga PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS kabilalar kiradi. Bu baholash dasturi boshlang'ich sinf o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini tekshiradi. Shu orqali ularning egallagan bilimlarini qay darajada hayotda duch kelgan qiyinchiliklarda qo'llay olishlarini baholaydi. Bilimni nafaqat puxta egallash balki, uni kerakli joyda va kerakli vaqtida qo'llay olishni ham bilish lozim. Shuning uchun bu to'rtta kompetensiya egallagan bilimlarini hayotda duch kelgan har qanday vaziyatlarda qo'llashni o'rgatadi [2].

Pedagogik amaliyotda 4K kompetensiyalarini integratsiya qilish yo'llari

O'quv jarayoniga 4K kompetensiyalarini muvaffaqiyatli joriy etish quyidagi metodlar orqali amalga oshiriladi:

- *Muammoli vaziyatli ta'limga* – o'quvchilarni real hayotiy masalalar yechimiga jalb qilish orqali tanqidiy fikrlash va kreativlik rivojlantiriladi.

- *Loyiha asosidagi o'qitish (Project-Based Learning)* – o'quvchilar mustaqil tadqiqot olib borib, natijalarini jamoaviy tarzda taqdim etadi.

- *Debat va munozaralar* – o'quvchilarning muloqot madaniyati va tanqidiy mulohaza yuritish salohiyatini oshiradi.

- *Raqamlı texnologiyalarni qo'llash* – onlayn platformalar, interaktiv vositalar yordamida kommunikatsiya va ijodiy fikrlash rag'batlantiriladi [7].

Quyida bu kompetensiyalarni ta'limgarayoniga qo'shishning samarali yo'llari keltiriladi:

Kompetensiya	Integratsiya usuli	Misol / Qo'llash shakli
Kritik fikrlash	Muammoli vaziyatlar asosida o'qitish	Iqlim o'zgarishi bo'yicha muhokama va tahlil
Kreativlik	Loyiha asosida ta'limgarayoniga qo'shishning samarali yo'llari keltiriladi	Ekologik loyiha ishlab chiqish
Kommunikatsiya	Debat va munozaralar	Sun'iy intellekt haqida bahs
Hamkorlik	Guruhiy ishlar va rolli o'yinlar	Guruh bo'lib muammoga yechim topish
Kreativlik va Kommunikatsiya	Prezentatsiya va esse yozish	"Orzu qilgan kasbim" mavzusida taqdimot
Hamkorlik va AKT	Onlayn platformalar orqali guruhiy ish	Jamboard'da umumiyligi fikrlar jamlanmasi
Kritik fikrlash	O'z-o'zini tahlil qilish	Mashg'ulotdan so'ng "Nima o'rgandim?" savoliga javob
4K uyg'unligi	STEM/STEAM yondashuvni	Fanlararo ijodiy loyiha tayyorlash

4K kompetensiyalarining ta'limgarayoniga sifatiga ta'siri.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 4K kompetensiyalarini qo'llash:

- O'quvchilar faolligini oshiradi – ular darsda passiv ishtirokchi emas, balki faol ijodkor sifatida qatnashadi .

- Shaxslararo va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantiradi – bu esa ularni jamiyatga moslashgan fuqarolar etib voyaga yetkazadi.

- O'rganishga bo'lgan motivatsiyani kuchaytiradi – o'quvchilar o'zlashtirgan bilimni amaliyotda qo'llash zarurligini tushunadi.

- Innovatsion fikrlashni rivojlantiradi – o'quvchilar yangicha yechimlarni izlashga intiladi, bu esa ularning kreativ salohiyatini oshiradi [9].

Ta'limgarayonida 4K kompetensiyalarining rivojlanishi o'quvchilarning umumiyligi salohiyatini oshirishga, ularni har tomonlama yetuk va muvaffaqiyatli shaxslar bo'lishga yordam beradi. Bu kompetensiyalar o'quvchilarga o'quv materiallarini o'zlashtirishdan tashqari, hayotda muvaffaqiyatli bo'lish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni ham beradi. Shuning uchun 4K kompetensiyalarining ahamiyati ta'limgarayonida juda katta va ularni ta'limgarayonida tizimiga to'liq integratsiya qilish zarur. Shu oraqli ta'limgarayononi samarali tashkil qilishga erishish mumkin [3]. Avvalo o'quvchilarning bilim va qobiliyatlarini yuzaga chiqarishda o'qituvchining o'zi kasb mahoratidan kelib chiqib, "4K" yondashuvining mazmun va mohiyatini anglab yetishi va dars jarayonida qo'llash lozim. "4K" yondashuvining asosiy maqsadi komil shaxsni shakllantirish uchun poydevor bo'lgan pedagogik jarayonni takomillashtirish, insonparvarlashtirish, o'quvchining mustaqilligini ta'minlash, o'qitish jarayonida texnik vositalar imkoniyatlaridan samarali foydalanishga erishishdan iborat. O'qituvchi va o'quvchilarni faollashtiradigan, o'zi va o'rganuvchi uchun qulay bo'lgan yo'llarni, usul va uslublarni, o'qitishni izlaydi, zamonaviy pedagogik texnologiyaga suyanib o'quv jarayoni samaraorligini oshiradi. O'qituvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatib o'quv jarayonining yuqori sifat va samaradorligini oshirishda xizmat qiladi[4].

Ushbu muhim kompetensiyalarni rivojlantirishni yordam berishni istasak o'quv jarayonini bolalar uchun qiziqarli va foydali tarzda tashkillash-tirishimiz kerak. Maktabdagagi har bir dars o'quvchilar faqat fan mazmunini o'zlashtiradigan emas, balki mustaqil bilim oladigan va qobiliyatini rivojlantiradigan jarayondir. Dars jarayonida qo'llanilayotgan interfaol metodlar,

didaktik o‘yinlar, ko‘rgazmali qurollar va tarqatmali vositalar ham “4K” yondashuviga asoslangan holda tashkil etilsa, dars samaradorligi yuqori bo‘ladi.

4K kompetensiyalarining ta’lim jarayoniga integratsiyasi bugungi kun ta’limining ustuvor vazifalaridan biridir. Ularning samarali qo‘llanilishi nafaqat o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini ta’minlaydi, balki ta’lim sifati ko‘rsatkichlarining ham sezilarli darajada oshishiga xizmat qiladi. Shu sababli, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi va didaktik materiallarni zamonaviy kompetensiyalar asosida shakllantirishlari dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son – 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidalgi Farmoni. Toshkent sh.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son – O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risidalgi Farmoni.
3. Sidiqova D., Aminova D. Ta’lim jarayonida “4k” kompetensiyalarining ahamiyati. // Pedagogik mahoratlilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2025, № 2
4. Maxamatova M. Zamonaviy ta’limga 4k modeli asosida yondashuv-pedagogik jarayonni takomillashtirish, insonparvarlashtirishning asosiy omili ekanligi. <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article>
5. Trilling, B., & Fadel, C. (2009). 21st Century Skills: Learning for Life in Our Times. Jossey-Bass.
6. OECD (2020). Future of Education and Skills 2030: OECD Learning Compass.
7. Bell, S. (2010). Project-Based Learning for the 21st Century: Skills for the Future. The Clearing House, 83(2), 39-43.
8. Fullan, M. (2013). Great to Excellent: Launching the Next Stage of Ontario’s Education Agenda.
9. Partnership for 21st Century Skills (P21) (2019). Framework for 21st Century Learning.